

## SANOATLASHGAN HUDUDLARDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Barnoqulova Marjona Otobek qizi

Sarbon Universiteti o'qituvchisi

+998 (93) 464-45-80

[barnoqulovamarjona@gmail.com](mailto:barnoqulovamarjona@gmail.com)

[orcid.org/0009-0007-1334-6819](https://orcid.org/0009-0007-1334-6819)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20603952>

**Annotatsiya:** Sanoatlashgan hududlarda ekologik barqarorlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Atrof-muhitga sanoat faoliyati natijasida yuzaga keladigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy vositalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, sanoatlashgan hududlar, ekologik soliqlar, yashil investitsiyalar, uglerod emissiyasi, ekologik siyosat.

### KIRISH

Sanoatlashtirish - iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq sanoat korxonalarining ko'payishi atmosfera havosi, suv va yer resurslarining ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois iqtisodiy rivojlanish va ekologik muhofaza o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Sanoatlashgan hududlarda ekologik barqarorlikni ta'minlashning asosiy iqtisodiy mexanizmlaridan biri ekologik soliqlar va to'lovlar tizimidir. Ushbu mexanizm orqali korxonalar tomonidan atrof-muhitga yetkazilgan zarar iqtisodiy jihatdan baholanadi hamda ifloslantiruvchi korxonalarni chiqindilar hajmini kamaytirishga rag'batlantiradi. "Ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili ekologik siyosatning muhim iqtisodiy instrumenti hisoblanadi. Yana bir muhim mexanizm – yashil investitsiyalarni jalb etishdir. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar sanoat korxonalarining ekologik yuklamasini kamaytiradi. Bunda yashil obligatsiyalar, ekologik grantlar va imtiyozli kreditlar muhim moliyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, uglerod chiqindilarini tartibga solish mexanizmlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Uglerod soliqlari va emissiyalar savdosi tizimi korxonalarni energiya tejavchi texnologiyalarni qo'llashga undaydi. Natijada ishlab chiqarishning ekologik samaradorligi ortadi va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari kamayadi. Ekologik barqarorlikni ta'minlashda davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish choralarini qo'llash ham samarali hisoblanadi. Xususan, ekologik standartlarga javob beruvchi korxonalariga soliq imtiyozlari berish, innovatsion texnologiyalar xarajatlarini qisman subsidiyalash hamda ekologik sertifikatlash tizimini rivojlantirish muhim natijalar beradi.

Iqtisodiy mexanizmlarga asoslangan ekologik boshqaruv tabiiy kapitalning saqlanishi va qayta tiklanishini ta'minlab, qo'shimcha iqtisodiy rag'bat yaratadi. Ekologik tushumlarning ma'lum qismi rekultivatsiya, yashil energiya va chiqindi qayta ishlash loyihalariga yo'naltiriladi. Bu esa byudjet xarajatlarining samaradorligini oshiradi va uzoq muddatli ekologik zararlarni kamaytiradi. Shunday qilib, ekologik mexanizmlar viloyat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ekologik mexanizmlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki resurs samaradorligi oshishi ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va qo'shilgan qiymat ulushini ko'paytiradi. 2020–2023 yillarda sanoat o'sishi asosan resurs intensiv modelga tayangan bo'lsa, 2024 yildan boshlab energiya va suv tejamkor texnologiyalar joriy etilishi

bilan iqtisodiy o‘shishning sifat tarkibi o‘zgara boshladi. 2030 yilga kelib sanoat YaIM o‘shishi yiliga 5–6 foiz atrofida saqlanib qolgan holda, ekologik yuklama mutlaq kamayish bosqichiga o‘tadi. Resurs tejash natijasida ishlab chiqarish xarajatlari 15–16 foizgacha qisqarishi mumkinligi yangilikda qayd etilgan. Bu esa korxonalar rentabelligini oshiradi va investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi. Davlat-xususiy sheriklik asosida mintaqaviy darajada “yashil energiya” infratuzilmasini kompleks rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan mexanizm taklif etildi. Ushbu mexanizm yirik quyosh va gidroenergetika obyektlarini barpo etish bilan bir qatorda, hududiy darajada kichik va mikro gidroelektr stansiyalar tarmog‘ini kengaytirish hamda aholi xonadonlarida decentralizatsiyalashgan energiya ishlab chiqarish tizimlarini (quyosh panellari) joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Taklif etilayotgan yondashuvning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda energiya ishlab chiqarish tizimi markazlashgan modeldan ko‘p darajali (markazlashgan va decentralizatsiyalashgan) modelga transformatsiya qilinib, energiya ta‘minotining barqarorligi, moslashuvchanligi va hududiy qamrovi oshiriladi. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o‘rtasida investitsiya, texnologiya va boshqaruv funksiyalarining optimal taqsimlanishi orqali energetika tizimining institutsional samaradorligi kuchaytiriladi. Mazkur mexanizm doirasida “yashil energiya” obyektlarini rivojlantirish hududiy iqtisodiyotda infratuzilma modernizatsiyasini jadallashtirib, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida yangi ish o‘rinlari yaratadi, xizmatlar sektorining kengayishiga va kichik biznes faoliyatining faollashuviga xizmat qiladi. Shuningdek, aholi darajasida energiya ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish orqali energiya iste‘molining tarkibiy optimallasuvi hamda energiya mustaqilligi oshiriladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida yashil energetikani rivojlantirish iqtisodiy o‘shish, investitsion faollik va ekologik barqarorlikni o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi kompleks rivojlanish modelini shakllantiradi.

### **Xulosa**

Mintaqani iqtisodiy-ekologik rivojlantirishning nazariy asoslari tahlili shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy tizimlarda ustuvor metodologik paradigma sifatida shakllangan bo‘lib, u iqtisodiy o‘shish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlashga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, iqtisodiy faoliyat tabiiy resurslar sig‘imi va ekologik chegaralar bilan uyg‘un holda tashkil etilishi zarur bo‘lib, bu esa hududiy rivojlanishda ekologik omilni markaziy element sifatida qarashni talab etadi. Yashil iqtisodiyot modeli hamda tabiiy kapital nazariyasi mintaqaviy iqtisodiyotni transformatsiya qilishning muhim ilmiy-uslubiy asoslarini shakllantiradi. Ular resurslardan foydalanishni faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki ekologik barqarorlik va uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlik bilan bog‘liq holda baholash zarurligini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish jarayonlarida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va chiqindilarni minimallashtirish mintaqaviy rivojlanishning strategik yo‘nalishiga aylanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2021 (yangi tahrir).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019 (tahrir).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Energiya samaradorligi to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
5. Abdullayev A.A. Hududiy iqtisodiy rivojlanish muammolari. — Toshkent: Fan, 2019.
6. Nicholas Stern. The Economics of Climate Change: The Stern Review (updated editions). — Cambridge University Press, 2017.
7. Herman Daly. Ecological Economics and Sustainable Development (reprint). — Edward Elgar Publishing, 2016.
8. Michael Porter. Competitive Advantage and Sustainability (updated studies). — Harvard Business Review Press, 2019.